





KONFERENSIYA

**“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI
RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN
KREATIV G’OYALAR,
TAKLIFLAR VA YECHIMLAR”**

@bestpublication |     | Street: Alisher Navoiy



«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma’rifat markazi

“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA
QARATILGAN KREATIV G’OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI 37-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ON-LINE
KONFERENSIYASI
MATERIALLARI TO’PLAMI
15-MAY , 2022-YIL

37-SON 2-QISM

“DEVELOPMENT OF A MODERN EDUCATION SYSTEM AND CREATIVE
IDEAS FOR IT, REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL ON-LINE
CONFERENCE ON "SUGGESTIONS AND SOLUTIONS"

15- MAY 2022

PART-37/2



INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

doi digital object
identifier

Google

CYBERLENINKA

“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G’OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI 37-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ON-LINE KONFERENSIYASI

Inyatova Miywagul Jenisbay qizi <i>KOMPLEKS BIRIKMALARNING IZOMERIYASI. MARKAZIY IONNING LIGAND BILAN ELEKTROSTATIK TA’SIRLASHUVI</i>	563
Jumaniyazova Sabohat Urinbayevna <i>O’SPIRINLIK DAVRIDAGI O’QUVCHILAR BILAN ISHLASH PSIXOLOGIIYASI</i>	567
Jumayeva Munira Tosheva <i>5-IYUN BUTUN JAHON ATROF -MUHITNI MUHOFAZA QILISH KUNI.</i>	570
Karimov Otabek Boborahmatovich <i>UMUMIY O’RTA TA’LIMDA MATEMATIKA FANINING O’QITILISH MAQSADI VA VAZIFALARI</i>	572
Kenjayeva Moxinur Ravshanjonovna <i>EFFECTIVE WAYS OF DESCRIBING PICTURES</i>	575
Khushmamatova M.R, Rasulova M.I. <i>THE PECULIARITIES OF FEMALE AND MALE SPEECH</i>	577
Tolibov Behzod Ibrohimovich, Yuldoshev Sarvarbek Mavlon o’g’li <i>O’ZBEKISTONDA MAVJUD TEMIR KONLARIDAN TEMIRNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH</i>	580
Xurramova Dildora Abdisattorovna <i>UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYA FANINI RIVOJLANTIRISH</i>	584
Yuldasheva Iroda Abduholiq qizi, B.Q.Qurbonova <i>BOSHLANG’ICH SINIF O’QISH DARSLARIDA O’QUVCHILAR NUTQINI O’SIRISHDA XALQ OG’ZAKI LJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISH</i>	586
Negboeva Orziqul Shuxrat kizi <i>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ</i>	589
Raunova Farzona Mahmudovna, Djambaqieva G <i>РОЛЬ И ПРИМЕНЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ (МСФО 16)</i>	591
Xoliqulov Doniyor Baxtiyorovich, Ibotov Bobur Odil o’g’li, Ostonov Sharifjon Qoyir o’g’li <i>MIS KUPOROS SEXI OQOVA SUVLARIDAN MIS VA NIKELNI AMMONIY RODANID BILAN CHO’KTIRISH</i>	593
Tolibov B.H, Saidxmedova J.A, Shonazarov M.H., <i>ИЗУЧЕНИЕ ТЕРМОДИНАМИКИ ОКИСЛИТЕЛЬНОГО ОБЖИГА. ДИССОЦИАЦИЯ СУЛЬФИДОВ И ОКСИДОВ ПРИ ОКИСЛЕНИИ</i>	596
Toшев O.Э, Қаладарова З.Х, Шоназаров М. И, Элмуродова М.О <i>Фойдали қазилмалар мустаҳкамлигини кучсизлантириш учун сирт-фаол моддаларни майдалаш ва янчиш жараёнига тадқиқ қилиш</i>	600
Ф.И.Сайфуллаев, Н.И. Мажидова, С.Г. Жабборова, О.У. Фузайлов <i>ИССЛЕДОВАНИЕ СПОСОБОВ ИНТЕНСИФИКАЦИИ ПРОЦЕССА ОБЖИГА СУЛЬФИДНЫХ ЗОЛОТОСОДЕРЖАЩИХ КОНЦЕНТРАТОВ С ПРИМЕНЕНИЕМ МИКРОВОЛНОВОГО ИЗЛУЧЕНИЯ</i>	603
Чабкаев Гаждимагомед, Джембакиева Г.С <i>МОШЕННИЧЕСТВО В ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ</i>	605
Ismatullayeva Gulbahor Hamidullo qizi <i>UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI O’QITISHNING AHAMIYATI</i>	608
Abdulhamid Jumanov Mahamadlatipovich <i>“UNYONUL BAYON” ASARI HIKMAT VA ADAB ILMIGA OID MUHIM MANBA</i>	611
Aslonboyeva Gulsanam Baxromjon qizi <i>AYOLLARGA NISBATAN PSIXOLOGIK ZO’RAVONLIK</i>	617
Aslonboyeva Gulsanam Baxromjon qizi <i>OILAVIY ZO’RAVONLIK PSIXOLOGIIYASI</i>	619
Aslonboyeva Gulsanam Baxromjon qizi <i>AYOLLAR ZO’RAVONLIGIGA BARHAM BERISH PSIXOLOGIIYASI</i>	621
Aslonboyeva Gulsanam Baxromjon qizi <i>AYOLLARGA NISBATAN ZO’RAVONLIKKA QARSHI KURASH</i>	623
Aslonboyeva Gulsanam Baxromjon qizi <i>AYOLLARGA NISBATAN ZO’RAVONLIK TARIXI</i>	625
Atabayeva Yulduz, Mamataliyeva Madina <i>INFORMATIKA DARSLARINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI</i>	627
Davlatov Zoirjon Zokiraliyevich, Inomidinov Husniddin <i>“O’TKAN KUNLAR” ROMANINING TURK TILIGA TARJIMASIDA SINONIMLARNING AKS ETISHI HAQIDA</i>	629
Hamidov Azimjon Hayotjon o’g’li <i>NAVOIY G’AZALLARI MATNIDA SO’Z TAHRIRI</i>	634
Shakarova Nazira Abdimurod qizi <i>O’ZBEKISTONDA MAKTAB O’QUVCHILARI UCHUN PISA DASTURI</i>	637
Tursunova Maftuna Turg’unboy qizi, Akilov J <i>HARORAT MAYDONI ORQALI HOSIL BO’LADIGAN TERMOELASTIKNING KUCLANISH TENGLAMALARI</i>	639
Bakhtiyor Xolmatov, Sherzodbek Hasanov <i>“THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF OUR ECONOMY”.</i>	642
Djurayeva Visola Olimjonovna <i>SOCIOLINGUISTIC FEATURES OF YOUTH SLANG AND WAYS OF TRANSLATING IT FROM ENGLISH INTO RUSSIAN (BASED ON THE MATERIAL OF MAGAZINES)</i>	645
Mirzayeva Gulhayo Fayzullayevna <i>ONA TILI DARSLARIDA O’QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O’RGATUVCHI INTERAKTIV VA NOAN’ANAVIY METODLAR</i>	650
Nazarova Sayyora Azimjanovna <i>ENGLISH HAS BEEN ADAPTED AS THE INTERNATIONAL LANGUAGE SO FAR</i>	653
Sultamuratova Nozira Allambergenovna <i>BOSHLANG’ICH SINFLARDA ONA TILI VA O’QISH DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYA ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH</i>	656

NAVOIY G’AZALLARI MATNIDA SO’Z TAHRIRI

Hamidov Azimjon Hayotjon o’g’li

Buxoro Davlat Universiteti

O’zbek tili va adabiyoti kafedrası o’qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada ulug’ shoir Alisher Navoiyning “Xazoyin ul maoniy” kuliyotlarini tuzish chog’idagi sa’y harakatlari, xususan bu davrgacha yaratgan to’plamlari “Badoye’ ul bidoya” va “Navodir un nihoya” devolari tarkibidagi g’azallarni tahrir qilgani haqidagi fikrlar ayonlashadi.*

Kalit so’zlar: *Xazoyin ul-maoniy, matnshunoslik, g’azal, bayt, misra, Badoye’ ul-bidoya.*

Ulug’ shoir ijodiga bo’lgan ma’naviy ehtiyoj o’z davridayoq mavjud bo’lib, bugungi globallashuv zamonida ham o’z ahamiyatini yoqotmay kelmoqda. Buni taniqli ijodkor asarlarining kitobat qilinishi, toshbosma nashrlarining amalga oshirilishi va o’tgan asrdan e’tiboran ko’plab nusxalarda nashr qilinishi ham dalillaydi. Buyuk shoir lirik merosining ilmiy-taqidiy matni yaratilib, uning akademik va ommabop nashrlari XX asrda bir necha bor chop etildi. Bular orasida 20 jildlik “Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami”ning 1-6-jildlari alohida ahamiyatga ega. Undan Navoiyning dastlabki devonlari va “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti ham o’rin olgan. Shoirning “Badoye’ ul-bidoya” devonidagi g’azallarining “Xazoyin ul-maoniy”ga ham kiritilishi jarayonida muallif o’zi va zamondosh hukmdor do’sti Husayn Boyqaro tahriridan o’tkazganini ham e’tirof etadi [3. 12]⁸⁹. Shu bois “Badoyi ul bidoya” tarkibidagi g’azallar va “Xazoyin ul maoniy” kuliyoti tarkibidagi bir xil g’azallar o’rtasida turli xil matniy tafovutlar ham ko’zga tashlanadi. Alisher Navoiy g’azallari nashrlarining matniy tafovutlari faqatgina shoir tahrirlarining natijasi bo’lmay, ular kotiblar tomonidan o’zgartirilgan holda ko’chirilishi, arab yozuvidan joriy yozuvga aylantirilganda, asliyatda bir harf bilan farqlanuvchi shaklan yaqin so’zlarning turlicha o’qilishidan kelib chiqqan bo’lishi mumkin. Ayni masalalarni imkon qadar ilmiy o’rganib, muayyan xulosalarga kelish ulug’ shoir g’azallaridagi mohiyatni teran anglashga imkon yaratadi. “Badoyi ul bidoya” devonidagi g’azallarining “Xazoyin ul maoniy” kuliyotidan o’rin olishi masalasi o’rganilganda muayyan g’azalning matni tahrir qilinishi undagi baytlar sonining ortishi nihoyatda kam kuzatiladi. “*Ochib ko’ksum shikofin, ayladim ko’nglumni nazzora*” [1. 517]⁹⁰ misrasi bilan boshlanuvchi g’azal fikrimizga dalil bo’la oladi.

Ochib ko’ksum shikofin, ayladim ko’nglumni nazzora,

Erur yuz poravu g’am tiyg’idin har pora yuz pora.

Tanim mehnat sipehri, anda, vah, paikoningu ashkim

Ko’ngulga g’ussa yetkurmakka sobit birla sayyora.

⁸⁹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 3-tom. – T., 1988, 18-19 b.

⁹⁰ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. I том. Тошкент: “Фан”, 1987. 517-бет

*Manga bedardliq dard erdi, vahkim, hajringdin
Chu menda bo’ldi dard, emdi erur bechoralik chora.
O’tarsen o’ynay-o’ynay, men gadoyi xasta yo’l uzra,
Qolurmen bir qiyo boqmoq uchun yolbora-yolbora.
Ko’ngul-sargashtalikdin bo’ldi yo’q og’zing kibi, go’yo
Ani charx aylagandur g’uncha yo’nmog’liqqa inkora.
O’lumdin hajr dushvor o’lmasa dard ahlig’a, nevchun
Ajal Majnunni asrab, aylagay Laylini ovvora?
Navoiy ko’ksini chok etti hajr andoqki, fahm etgay
Taxayyul hay’atin ko’ngul aro kim qilsa nazzora.[1. 517]*

Ushbu g’azal matni “Badoyi ul-bidoya” devonida yetti baytdan tashkil topgan bo’lsa, “Badoye ul vasat” devoni tarkibida to’qqiz baytdan tashkil topganligi ko’rinadi. Ushbu g’azal hazrat Alisher Navoiyning oshiqona mavzuda bitilgan g’azallari sirasidandir. G’azalda ma’shuqasining ishq ko’ngliga tushgan va shunig oqibatida ishq mayidan sarmast bo’lgan oshiqning holati haqida fikr yuritiladi. Birinchi baytda lirik qahramonning ruhiy holati bayon etilib, uning o’z ko’ksini chok qilib, ko’ngliga nazar tashlagani va ko’nglining g’am tig’idan yuz pora bo’lgani undagi porasida ming yara borligi haqida so’z yuritiladi. G’azalning ikkinchi bayti “Badoyi ul vasat” devonidagi g’azal matnida uchinchi baytga to’g’ri keladi. Unda oshiq o’z holatini bayon qilib, *tanasining ga’m anduh osmoni ekanini*, ma’shuqasining *kipriklari va ko’z yoshi uning ko’ngliga tushgani, ular sobitu sayyora singari oshiqko’nglidan joy olganligi* bayon qilinadi. Uchinchi baytida oshiq yana o’z holati xususida to’xtalib, *menga dardsizlik dard edi, hajringdan dard keldi, endi chorasizligim choradir* deydi. Shu o’rinda savol tug’uladi. Nima uchun oshiqqa dardsizlik edi? Bunga sabab shuki, ulug’ shoir ishq bo’lmagan kishini bemor hisoblaganida ko’rinadi. Ma’shuqasiga bo’lgan ishq ko’ngliga tushishi bilan oshiq yangi dard bo’lmish ishq dardiga chalinadi. Shu o’rinda ta’kidlash joizki ushbu bayt “Badoyi ul vasat” devonidagi g’azal matnida uchramaydi. To’rtinchi baytda oshiq ma’shuqasiga yuzlanib, uning yonidan beparvo uynab o’tishi, oshiq esa uning jamolini bir ko’rish uchun necha bora yolborib nola chekishi haqidagi fikrlar keltiriladi. Yuqoridagi g’azalning beshinchi bayti “Badoyi ul vasat” devonidagi g’azal matnida yettinchi bayt sifatid o’rin olgani kuzatiladi. Keyingi oltinchi bayt “Badoyi ul vasat” devonidagi g’azal matnida beshinchi bayt ko’rinishida uchraydi. Unda *dard ahli-oshiqlar uchun hijron o’limdan qiyin bo’lmasa, nega ajal Majnunni asrab, Laylini ovora qildi?! Ajalning Laylini ovvora qilgani Majnundan oldin vavot etganiga ishoradir. Yo’qsa, Layli Majnundan ayrilib o’limdan qiyin bo’lgan hijron izitrobida qiynalardi.*

So’ngi maqta’ qismi “Badoyi ul vasat” devonidagi g’azal matnida to’qqizinchi baytda keltirilgan. *Kimda kim ko’ngil aro taxayyul, ya’ni xayol qilish suratini ko’rsa, hajr Navoiy ko’ksini shunday chok etkanini fahm etadi.* Bu bilan ulug’ shoir shoir hijron chok qilgan ko’nglini ko’ngil ko’zi bilangina ko’rish mumkinligiga ishora qiladi. Yuqorida keltirilgan g’azal matni “Badoyi ul vasat” devonida g’azal matnida to’qqiz baytli ko’rinishda namoyon bo’lgan. Ushbu g’azalning ikkinchi, uchinchi, oltinchi, yettinchi va sakkizinchi baytlari hazrat Alisher Navoiyning o’zi tomonidan birinchi tuzilgan devoni “Badoye ul bidoya”

devonida

uchramaydi.

G’azalning ikkinchi baytida lirik qahramon o’z holini bayon qiladi. Ma’shuqasining ishq azoblaridan ko’ksi chok bo’lgan oshiqning qalbiga ma’shuqazi hijron toshlarini otadi. Ma’shuqasi azoblarini muqaddas bilgan oshiq u otgan toshlarni qalbining o’rniga joylaydi. Uchinchi baytda oshiq ma’shuqasiga yuzlanib o’z ishqini bayon etadi. Tanimni ishqing bilan asir qilding, ishqimni rad etma. Chunki qil o’ning ustiga tushdi, endi yonishidan boshqa chora yoq. Bayt orqali ijodkor lirik qahramon tilidan ma’shuqasiga ko’nglidagi ishqini bayon qilganligini kuzatiladi. G’azalning oltinchi baytida *“biror kishi may yutsa, mening ko’nglim u qon ichgan gumon qiladi, suv ichgan may ichkan vaqtini sog’inadi agar may ichuvchi bo’lsa”* mazmunidagi fikr mujassamlashgan. Keyingi baytda oshiqning ko’ngli vayron bo’lgani suyuklisi ishqida yonib unga yetolmagani iztiroblari bayon qilingan. Sakkizinchi baytda malakning taslim bo’lishi shaytonning kibriga o’xshaydi, aql o’zini buyurilgan hukm deb istab nafsi ammoraga amr qiladi.

Ulug’ ijodkor “Badoyi ul bidoya” tarkibidagi ushbu *“Ochib ko’ksun shigofin ayladim ko’nglumni nazzora”* misrasi bilan boshlanuvchi g’azalni tahrir qilgan ekan “Badoyi ul vasat” devoniga boshqa xil ko’rinish va ma’no qo’shganligi kuzatiladi. Ushbu g’azalning “Badoyi ul bidoya” devoni tarkibidagi matni tahrirga tortilganda birinchi, to’rtinchi, oltinchi va yettinchi baytlari saqlanib qolgan. Ikkinchi, uchinchi va beshinchi baytlar “Badoyi ul vasat” devoni tarkibidagi matnda uchramaydi. “Badoyi ul vasat” devonida yuqorida tahlilga tortilgan baytlar yangi qo’shilgan. Bu baytlar g’azalning yanada jozibali bo’lishiga hissa qo’shgan.

Ko’rinadiki, turli devonlardan o’rin olgan muayyan g’azallarning matniy tafovutlari xususida bayon etilgan ushbu mulohazalarimiz bu borada hali muhim tadqiqotlar amalga oshirish zarurati borligidan dalolat beradi. Bunday tafovutlarni qiyosiy o’rganish asosida ulug’ shoir tomonidan kiritilgan tahrirlarga ma’lum darajada oydinlik kiritish va ayrim xatoliklarni tuzatish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa ulug’ shoirning g’azalda ilgari surilgan umumbashariy g’oyalarini chuqurroq o’rganishga omil bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1 том. Тошкент: “Фан”, 1987.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 3 том. Тошкент: “Фан”, 1988.
3. 1. Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006.
4. Eshonqulov H., Sodiqova D. Muslihabegim Miskin – XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste’dodli zullisonayn shoirasi. Oltin bitiglar — Golden scripts. 2021/3. B. 67—86.
5. Eshonqulov H. Alisher Navoiy oshiqona g’azallarining badiiy qurilishiga oid o’ziga xosliklar. Oltin bitiglar — Golden scripts. 2021/1. B. 69—86.
6. Eshonkulov Husniddin Pirimovich. ALISHER NAVOI’S ARTISTIC SKILLS IN THE USE OF WORDS REPEAT AND RHYTHM. Journal of Hunan University (Natural Sciences). Vol. 48. No. 12. December 2021. Peg. 2065-2076.